O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI
TERMIZ SHAHAR HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 5-uy. 190112, tel.: 0 (376) 224-16-40, fax: 0(376) 224-13-12, termiz.sh@exat.uz

2022 - yil 1 - iyul 237-8-121-Q/22 Termiz shahar hokimligi

Termiz shahridagi davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunining 27-, 47-moddalari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi nizomning 39-, 41-bandlari, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 469-son qarori bilan tasdiqlangan “Bolalarni davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qabul qilish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamenti”ning 3-, 4-, 8-bandlariga asosan, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Termiz shahar Xalq ta’limi bo‘limining 2022-yil 08-maydagi “Maktab yoshidagi bolalarni majburiy ta’limga jalb etish maqsadida shahardagi har bir umumiy o‘rta ta’lim muassasalarini hudud va mikrohududlarga biriktirish to‘g‘risida”gi ____-sonli xati malumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahardagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarini mahalla fuqaro yig‘inlaridagi hudud va mikrohududlarga biriktirish haqidagi ro‘yxat 1-ilovaga muvofiq;

Termiz shahridagi umumta’lim maktablarida ta’lim ikki (o‘zbek va rus) tilida olib borilishini inobatga olgan holda, maktablarga hududlarni o‘qitish tili bo‘yicha biriktirish 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining o‘rinbosari (K.Ashurov), shahar Xalq ta’limi bo‘limi mudiri (O.Sadatov)ga va shahardagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalari rahbarlarining zimmasiga:

- maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga 7 yoshga to‘ladigan

yilda to‘liq qamrab olish;

- o‘quvchilarning darslarga qatnashish holati yuzasidan doimiy monitoring olib borish va monitoring natijasida aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha zarur choralar ko‘rish vazifasi topshirilsin.

4. Belgilansinki, shahardagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalar rahbarlari o‘zlari rahbarlik qilayotgan muassasaga biriktirilgan hududdagi maktab yoshidagi bolalarni o‘z vaqtida umumiy o‘rta ta’lim muassasasiga o‘qishga jalb qilish uchun mas’ul hisoblanadi.

5. Termiz shahar “Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash” bo‘limi va mahalla fuqarolar yig‘ini raislariga:

- maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga qamrab olish jarayonida shahar Xalq ta’limi bo‘limi hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga amaliy yordam berish tavsiya etilsin.

6. Termiz shahar hokimligi Axborot xizmati (O.Xudoyqulov) mazkur qarorni hokimlikning tegishli ijtimoiy tarmoqlariga hamda rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Termiz shahar hokimining 2021-yil 16-sentabrdagi “Termiz shahrida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan shahardagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 138-8-121-Q/21-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari K.Ashurov va shahar Xalq ta’limi bo‘limi mudiri O.Sadatov zimmasiga yuklansin.

Termiz shahar hokimi **I.B.Xudayberdiyev**

Termiz shahar hokimining
2022 yil 1 iyuldagi
237-8-121-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Umumta’lim maktablarining o‘qitish tili to‘g‘risida MA’LUMOT

T/r	Shahar nomi	Maktab raqami	1-sinfda ochiladigan sinflar soni (kvota bo‘yicha)	Shundan:							Ta’lim olish tili bo‘yicha yaqin hududdagi biriktirilgan maktab						
				o‘zbek	rus	qoraqalpoq	qozoq	qirg‘iz	tojik	turkman	o‘zbek	rus	qoraqalpoq	qozoq	qirg‘iz	tojik	turkman
Jami		**26**	**107**	**92**	**15**												
1	Termiz shahar	1 - sonli maktab	6	4	2												
2	Termiz shahar	2 - sonli maktab	2	2								4-maktab					
3	Termiz shahar	3 - sonli maktab	6	4	2												
4	Termiz shahar	4 - sonli maktab	4	2	2												
5	Termiz shahar	5 - sonli maktab	2	2								7-maktab					
6	Termiz shahar	6 - sonli maktab	4	3	1												
7	Termiz shahar	7 - sonli maktab	5	3	2												
8	Termiz shahar	8 - sonli maktab	5	5								3-maktab					
9	Termiz shahar	9 - sonli maktab	7	7								15-maktab					
10	Termiz shahar	10 - sonli maktab	7	4	3												
11	Termiz shahar	11 - sonli maktab	4	4								10-maktab					
12	Termiz shahar	12 - sonli maktab	4	4								10-maktab					
13	Termiz shahar	13 - sonli maktab	6	6								26-maktab					
14	Termiz shahar	14 - sonli maktab	2	2								6-maktab					
15	Termiz shahar	15 - sonli maktab	6	4	2												
16	Termiz shahar	16 - sonli maktab	3	3								15-maktab					
17	Termiz shahar	17 - sonli maktab	5	5								7-maktab					
18	Termiz shahar	18 - sonli maktab	3	3								26-maktab					
19	Termiz shahar	19 - sonli maktab	2	2								6-maktab					

20	Termiz shahar	20 - sonli maktab	2	2								26-maktab					
21	Termiz shahar	21 - sonli maktab	3	3								26-maktab					
22	Termiz shahar	22 - sonli maktab	2	2								3-maktab					
23	Termiz shahar	23 - sonli maktab	4	4								15-maktab					
24	Termiz shahar	24 - sonli maktab	3	3								15-maktab					
25	Termiz shahar	25 - sonli maktab	5	5								15-maktab					
26	Termiz shahar	26 - sonli maktab	5	4	1												